

Qo'shtepa tumanida birinchilardan bo'lib Xo'jaqishloq maxallasidagi pillakorlar "kumush tola" xomashyosini terishni boshladi.

Koronavirus pandemiyasi tarqalishini oldini olish maqsadida joriy etilgan karantin qoidalariga tumanda to'laligicha amal qilingan xolda mo'l pilla xosili yetishtirish uchun barcha zarur chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Tumandagi ilg'or pillakorlar xosil yig'ishni allaqachon boshlab yubordi. Jumladan, "Xo'jaqishloq" maxalla fuqarolar yig'inida yashovchi Latifaxon Yuldasheva oila a'zolari bilan birga berilgan ikki quti ipak qurti parvarishini obi-tobida va shubxasiz, karantin talab va qoidalariga to'la amal qilgan xolda parvarishlab, davlatga 200 kilogaramm pilla topshirdilar.



Yana bir ilg'or pillakorlardan biri Gulchexraxon Xakimovlar oilasi xam "kumush tola"larni terib oldilar. Pillakorlar 30 gramm ipak qurti parvarishlab, 150 kilogramm pilla xomashyosini davlatga topshirdilar.

Qo'shtepalik pillakorlar joriy mavsumda tuman bo'yicha 102 tonnadan ziyod qimmatbaxo xomashyo yetishtirish maqsadida astoydil mexnat qilmoqdalar. Tuman pilla xirmoniga yilning ilk xosilining dastlabki namunalari kela boshladi. Umid qilamizki, "kumush tola" ijodkorlari o'z oldilariga qo'ygan rejalarini ortig'i bilan uddalaydilar.

Xirmoningizga baraka, qadri va qaddi baland Qo'shtepalik pillakorlar!

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-05-14 13:44:58